

**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/28.2024.T.181.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

OMONOV ZARSHID JUMANAZAR O‘G‘LI

**ARRALI JINNI TOZALASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH
MAQSADIDA TA‘MINLAGICHNING TAKOMILLASHTIRILGAN
ISHCHI QISMINI ISHLAB CHIQISH**

05.02.03 - Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Termiz – 2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
technical sciences**

Omonov Zarshid Jumanazar o‘g‘li

Arrali jinni tozalash samaradorligini oshirish maqsadida
ta‘minlagichning takomillashtirilgan ishchi qismini ishlab
chiqish..... 5

Омонов Заршид Жуманазарович

Разработка модернизированного рабочего органа питателя с
целью повышения очистительного эффекта пильного джина..... 21

Omonov Zarshid Zhumanazarovich

Development of a modernized working element of the feeder in order to
increase the cleaning effect of the saw gin..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список о опубликованных работ
List of published works..... 50

**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/28.2024.T.181.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

OMONOV ZARSHID JUMANAZAR O'G'LI

**ARRALI JINNI TOZALASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH
MAQSADIDA TA'MINLAGICHNING TAKOMILLASHTIRILGAN
ISHCHI QISMINI ISHLAB CHIQISH**

05.02.03 - Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2025.2.PhD/T3916 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.termizmti.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sulaymonov Rustam Shennikovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Djamolov Rustam Kamoliddinovich
texnika fanlari doktori, профессор

Yunusov Soloxiddin Zununovich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat texnik universiteti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/28.2024.t.181.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «___» _____ soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 190100, Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, Islom Karimov ko'chasi, 288A-uy. Tel.: (+99876) 221-87-20, Telegram: (+99894) 460-20-44, e-mail: admin@tdmau.uz). termizmti@mail.ru.

Dissertatsiya bilan Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 190100, Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, Islom Karimov ko'chasi, 288A-uy. Tel.: (+99876) 221-87-20 Telegram: (+99894) 460-20-44, e-mail: admin@tdmau.uz). termizmti@mail.ru.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2025 yil «___» _____ № _____ raqamli reestr bayonnomasi).

F.U.Qarshiyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, t.f.d., professor

O.Sh.Ochildiyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, (PhD) dotsent

M.K.Urozov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, t.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda paxta tolasi tekstil sanoatining asosiy homashyosi hisoblanadi. Paxta tolasini sifatli ishlab chiqarish uchun zamonaviy resurstejamkor texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda O'zbekiston o'zining munosib o'rniga ega. Jahon tola va tayyor mahsulot bozorida raqobatning yuqori darajadali, raqobatbardosh sifatli to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish zarurligini ko'rsatmoqda. Paxtachilik sohasidagi ko'pgina davlatlarda to'qimachilik sanoati yaxshi rivojlanmaganligi sababli paxta mahsulotlarini katta qismini eksport qilish yirik ishlab chiqarishga ega bo'lgan AQSh, Xitoy va Xindiston davlatlariga to'g'ri keladi¹.

Paxtaga dastlabki ishlov berish texnika va texnologiyalarini loyihalash va ishlab chiqarishning avtomatlashtirilgan usullarini rivojlantirish, texnologik jarayonlarni boshqarish usullarini takomillashtirishga katta e'tibor berilmoqda. Bu borada, jumladan paxtani jinni o'zida samarali tozalash va jinlash texnik vositalari va texnologiyalarini yaratish, tola va chigit sifatini yaxshilash, ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi resurstejamkor texnikalarni ishlab chiqish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Jahonda paxtaga dastlabki ishlov berish yangi texnika va texnologiyalarini ishlab chiqish, ilmiy asoslarini yaratish doirasida keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, jumladan paxta tozalash korxonalarining asosiy uskunasi hisoblangan arrali jinni ishlash jarayonini avtomatlashtirish, resurstejamkor qismlar bilan jihozlash, ish unumdorligini va tozalash samaradorligini oshirish, uskunani ekspluatatsiya ishonchliligini takomillashtirish asosida ishlab chiqarilayotgan tolaning tabiiy sifatini saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada paxta tozalash korxonalari oldida turgan va echilishi kerak bo'lgan asosiy vazifalardan biri yangi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish bilan paxtani arrali jinlashda mahsulot yo'qolishini keskin kamaytirib, davlat standartlari talabiga mos ravishda sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarishdan iborat. Bunda yuqori va past navli paxtalarni yuqori samaradorlikda tozalash va jinlash bilan birga energiyaresurstejamkor texnologik jarayonni yo'lga qo'yadigan arrali jinlarni ilmiy asoslangan holda ishlab chiqish zarurdir.

Respublikamizda paxta-to'qimachilikni takomillashtirish asosida iqtisodiyot taraqqiyotining muxim shartlaridan biri bo'lgan paxta-to'qimachilik klasterlarini keng yo'lga qo'yish, paxtani qayta ishlashda paxtani jinlash uskunasini loyihalash va ishlab chiqarish texnologik darajasini ko'tarish, ichki va tashqi bozorda arrali jinni raqobatbardoshligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan "...sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish, to'qimachilik sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish, jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishda to'qimachilik sohalarini ishlab chiqarishga ta'sirini o'rganish..." vazifalari belgilab berilgan².

1. "Ресерч анд Маркет" веб-сайтидаги ҳисобот

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон "янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги Фармони

Ushbu vazifalarni bajarishda, jumladan yuqori va past navli paxtalarni jinni o'zida tozalash va jinlashda ishlab chiqarish samaradorligini oshiradigan va iste'molchining sifatli tola va chigitga bo'lgan talabini bajaradigan paxtani tozalash va jinlashni takomillashtirilgan samarali texnikasini yaratish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 6 martdagi PQ-4633-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida paxta xom ashyosini etishtirish va qayta ishlash kooperatsiyalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 iyundagi 398-sonli Qarori, Vazirlar mahkamasining 2018-yil 25-noyabrdagi 53-sonli "Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-yanvardagi 21-sonli "Respublika hududlarida paxta hosili terimini mexanizatsiyalash darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-xuquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. "Energetika, energiya va resurstejamkorlik" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Arrali jinni ishchi qismlarini yangi konstruksiyalarini yaratish, resurstejamkorligini oshirish, paxta xomashyosini jinlash texnologiyasini takomillashtirish, paxtani jinni o'zida tozalash va arrali jinlashni ishlab chiqarish jarayonlariga va olinadigan tola hamda chigitning sifat va miqdor ko'rsatkichlariga ta'siri masalalari bo'yicha bir qator olimlar: E.Uitney, E. Lumpkin, G.Klark, X.Xolms, A.Martinenko, V.Pampel, G.Viyet, P.Pfiyger, S.Jonkers, K.Grin, L.Gladinevis, X.Shommer, I.Perkins va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Paxta xomashyosini jinda tozalash va arrali jinlash jarayonini takomillashtirish orqali ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatini yaxshilash bo'yicha nazariy-metodologik asosi bo'lgan fundamental va amaliy masalalarni yechishga mamlakatimizda bir qator olimlar: B.A.Levkovich, D.A.Shepelevich, V.G.Gulidov, G.D.Djabborov, P.N.Tyutin, G.I.Boldinskiy, D.A.Kotov, R.G.Maxkamov, E.T.Maqsudov, R.M.Kattaxodjaye, M.Tillayev, B.Mardonov, R.Sh.Sulaymonov, D.M.Muxammadiyev, J.S.Ergashev va boshqalar o'zlarini salmoqli hissalarini qo'shganlar. Lekin shunga qaramasdan bugungi kunda paxtani jinda mayda iflosliklardan tozalash va jinlashda jarayonni jadallashtirish bilan tozalash samaradorligini oshirish va jinga tozalangan paxtani bir tekis yoyilgan holatda kerakli miqdorda berish orqali xomashyo valigini toladorligini oshiradigan va kerakli zichlikda bo'lishini ta'minlaydigan, ishchi kameradan jinlangan chigitlarni tashqariga chiqishini jadallashtirish orqali jinning ish unumdorligini

o'shiradigan, tola va chigit sifatini yaxshilaydigan arrali jin uskunasini yaratish muammosi hozirgi vaqtgacha etarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti «Paxtasanoat ilmiy markazi» aksiyadorlik jamiyati ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining KA3-012 «Takomillashtirilgan resurstejamkor arrali jin ishchi qismlarini sinash usullarini ishlab chiqish va o'tkazish» mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Arrali jin uchun tozalash samaradorligi va ish unumdorligi yuqori bo'lgan takomillashtirilgan ta'minlagich-tozalagichni ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

paxtani jinda tozalash va jinlash texnikasi va texnologiyasini yaratishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini taxlil qilish;

tozalash zonasida paxtadan mayda iflosliklarni samarali ajratishda oqimdagi paxta bo'lakchasiga baraban qoziqlari bilan kolosnikli panjarani o'zaro ta'sirini nazariy tadqiqotlar asosida ishlab chiqish;

paxtani jinda mayda iflosliklardan samarali tozalash jarayonini amalga oshiradigan yangi konstruksiyali kolosnikli panjarani ishlab chiqish;

arrali jin ta'minlagich-tozalagichi uchun takomillashtirilgan kolosnikli panjarani muqobil texnologik va konstruksion parametrlarini aniqlash;

yangi konstruksiyali kolosnikli panjarali ta'minlagich-tozalagichga ega bo'lgan takomillashtirilgan arrali jinda paxtani mayda iflosliklardan tozalash va jinlashda ishlab chiqarishdagi xarakteristikasini aniqlash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida paxtani mayda iflosliklardan tozalaydigan arrali jinni ta'minlagich-tozalagichi olingan.

Tadqiqotning predmeti paxtani mayda iflosliklardan samarali tozalash jarayonini amalga oshiradigan yangi konstruksiyali kolosnikli panjara.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy mashina va mexanizmlar nazariyasi, oliy matematika, mexanika va tebranishlar nazariyasi, texnologik mashinalarni ish jarayonlarini matematik modellashtirish, matematik statistika va hisoblash matematikasi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

paxtani jinda tozalash va jinlashda tozalash samaradorligini va ish unumdorligini oshirish bilan tola va chigit sifatini yaxshilaydigan takomillashtirilgan konstruksiyali kolosnikli panjaraga ega bo'lgan arrali jinni ta'minlagichning takomillashtirilgan ishchi qismi ishlab chiqilgan;

tozalash zonasida oqimdagi paxtadan mayda iflosliklarni ajralish jarayonining jadallashishi bilan tozalash samaradorligini oshishida, barabandagi qoziqlar zarbasi ta'sirida paxtaning kolosnikli panjara yuza sirtidagi zichligiga va bosim kuchiga bog'liqligi aniqlangan;

paxtani mayda iflosliklardan samarali tozalash jarayonida, jinning ishlash unumdorligini oshishida, tola va chigit sifatining yaxshilanishida ta'minlagich-tozalagichdagi kolosnikli panjara qamrov burchagini, kolosniklar oraliq masofasini muqobil parametrlari aniqlangan;

yuqori va past navli paxtani tozalash va jinlashdan ishlab chiqarilgan tolaning sifatini yaxshilash va tabiiy hususiyatlarini saqlab qolish uchun ta'minlagichning takomillashtirilgan ishchi qismi taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

jinda paxtani mayda iflosliklardan samarali tozalash bilan jin ish unumdorligini oshishini, ishlab chiqarilgan maxsulotlar sifati yaxshilanishini ta'minlaydigan takomillashtirilgan konstruksiyali kolosnikli panjara ishlab chiqarilgan;

tozalash zonasida kolosnikli panjara bilan barabandagi qoziqlar oralig'ida xarakatlanayotgan paxta oqimidan mayda iflosliklarni samarali ajratib olish uchun panjara kerakli kolosniklar bilan takomillashtirilgan;

amaliy tadqiqotlar asosida arrali jin ta'minlagich-tozalagichi uchun kolosnikli panjara bilan barabandagi qoziqlari oralig'ining rasional texnologik va konstruktiv parametrlari aniqlangan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi takomillashtirilgan kolosnikli panjaraga ega bo'lgan arrali jin bo'yicha olingan xulosalar va tavsiyalar, tajriba sinovlarini laboratoriya va paxta tozalash korxonasida ishlab chiqarish sharoitida o'tkazilganligi, nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarining o'zaro mosligi, ularni ma'lum baholash me'zonlari bo'yicha adekvatligi, aprobeasiya va joriy qilish, o'tkazilgan tadqiqotlarning ijobiy natijalari va ularni ko'rib chiqilayotgan fan sohasidagi ma'lumotlarni qiyosiy tahlili bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tozalash zonasida kolosnikli panjaradagi kolosniklar oraliq masofasini, kolosniklar bilan qoziqli barabanni oqimdagi paxta harakatiga ta'sirini ifodalovchi tenglamalarning ishlab chiqilishi, tozalash zonasida paxtadan mayda iflosliklarni ajralishining jadallashishi kolosniklar bilan barabandagi qoziqlarni paxtaga o'zaro ta'sirida yuzaga keladigan zichlik va bosim kuchiga bog'liqligi nazariy tadqiqotlari bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yuqori tozalash samaradorlikda ishlaydigan, tola va chigit sifatini yaxshilaydigan yangi konstruksiyali kolosnikli panjara bilan takomillashtirilgan jinni tavsiya qilinganligi va ishlab chiqarish sharoitida qo'llash imkoniyati bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Paxta-to'qimachilik klasteri paxta tozalash korxonalarida paxtani mayda iflosliklardan jinda tozalash va jinlashda samaradorligi yuqori bo'lgan uskunalarni yaratish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Jinni o'zida paxtani mayda iflosliklardan tozalash va jinlash texnologiyasi va uskunasi Sirdaryo viloyati "Boyovut techno cluste" MChJ paxta tozalash korxonasiga joriy etilgan («O'ZTO'QIMACHILIKSANOAT» uyushmasining 2025 yil 26 maydagi 03/25-1117-son ma'lumotnomasi). Natijada yuqori va past navli paxtani mayda iflosliklardan tozalashda paxtaning sifati o'rtacha 0,04 (abs)% va 0,06 (abs)% ga, jinning tozalash samaradorligini o'rtacha 2,7 (abs)% va 2,8 (abs)% ga, ish unumdorligini o'rtacha 40-42 kg/h ga oshirish imkoni yaratilgan;

Takomillashtirilgan 8DP-90 rusumli arrali jin Sirdaryo viloyati “Boyovut techno cluste” MChJ paxta tozalash korxonasiga joriy etilgan («O‘ZTO‘QIMACHILIKSANOAT» uyushmasining 2025-yil 26-maydagi 03/25-1117-son ma’lumotnomasi). Natijada yuqori va past navli paxtani tozalash va jinlashdan ishlab chiqarilgan tolaning sifati o‘rtacha 0,08 (abs)% ga va 0,12 (abs)% ga, chigitning sifati o‘rtacha 0,27 (abs)% va 0,16 (abs)% ga yaxshilash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari bo‘yicha 2 ta xalqaro va 2 ta Respublika anjumanlarida va 6 ta ilmiy seminarlarda muhokama qilingan.


Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertasiya mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining falsafa doktori dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola nashr etilgan, shulardan 4 ta maqola Respublika va 2 ta maqola chet el jurnallarida chop etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertasiyaning hajmi 102 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obyekti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy qilish, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Arrali jinlardagi ta’minlagich-tozalagichlarning analitik taxlili**” deb nomlangan birinchi bobi paxtani arrali jinda iflosliklardan



1-rasm. 5DP-130 rusumli arrali jinni mavjud to‘rli yuzaga ega bo‘lgan ta’minlagich-tozalagichi sxemasi

1-ta’minlovchi valiklar, 2-qoziqli baraban,
3-to‘rli yuza, 4-chiqindi shnegi,
5-tarnov, 6-magnit


tozalashda ishlatilayotgan ta’minlagich-tozalagichlarni bugungi kundagi holatiga bag‘ishlangan. Paxtani jinda tozalashda va jinlashda tozalash samaradorligini va ish unumdorligini oshirish, tola va chigitni sifatini yaxshilash bo‘yicha olib borilgan ilmiy va amaliy ishlar tahlil qilindi.

Maxalliy va xorijiy arrali jinlarda paxtani tozalashda paxta tarkibidan mayda va yirik iflosliklarni ajratishda paxta sifatiga, tozalash samaradorligiga, paxtani chiqindiga ajralish miqdoriga, elektr energiya va ehtiyot qismlarning sarfiga ta’sir etuvchi asosiy ishchi qism bo‘lgan ta’minlagich-tozalagich va undagi to‘rli

yuzalarning konstruksiyalari o'rganildi (1-rasm). 5DP-130 arrali jinlardagi ta'minlagich-tozalagichni samaradorligini o'rganish maqsadida ishlab chiqarishda yuqori va past seleksion navli paxtalarda o'tkazilgan tajriba-tadqiqot ishlarining natijasi ta'minlagichning tozalash samaradorligi o'rtacha 10,46% va 12,77% ga teng bo'lib, jin pasportidagi ta'minlagich-tozalagich tozalash samaradorligiga qaraganda o'rtacha 4-7% ga kam ekanligini ko'rsatdi. Bunga asosiy sabablardan biri ta'minlagich-tozalagichdagi to'rtli yuza konstruksiyasi kamchiligidan ekanligi aniqlandi.

AQShning "Lyummus" firmasi tomonidan ishlab chiqarilgan va hozirda Buxoro viloyatidagi SP "Karvon" korxonasi ishlatilayotgan 170 arrali jinning ta'minlagich-tozalagichida o'kazilgan tadqiqot ishlarini natijasi ta'minlagich-tozalagichlarini tozalash samaradorligi yuqori va past navli paxtalarni tozalashda o'rtacha 25-38% ga teng ekanligini ko'rsatdi.

Lekin paxtani tozalashda chiqindiga, chiqindi massasiga nisbatan o'rtacha 15-25% paxtani ajralishi va ushbu paxtani chiqindidan ajratish uchun qo'shimcha



2-rasm. "Lyummus" firmasi arrali jini ta'minlagich-tozalagichining sxemasi

- 1-ta'minlovchi valiklar; 2-qoziqli barabanlar;
- 3-to'rtli yuza; 4-ustki arrachali baraban;
- 5-kolosnikli panjara; 6-cho'tkali baraban;
- 7-regenerasiya barabani; 8-kolosnikli panjara;
- 9-chiqindi shnegi; 10-tarnov

ta'minlagich-tozalagichini yangi konstruksiyali kolosnikli panjara bilan takomillashtirish kerakligini ko'rsatdi.

Dissertatsiyaning "Arrali jin ta'minlagich-tozalagichi uchun takomillashtirilgan kolosnikli panjara nazaridagi tadqiqoti" deb nomlangan ikkinchi bobida paxta oqimini qoziqli baraban bilan kolosnikli panjara oralig'idagi xarakati o'rganildi. Bunda paxta oqimi qoziqli baraban bilan kolosnikli panjara qamrov burchagi yo'lni bosib o'tadi (3-rasm). Ushbu o'tish yo'lida paxta oqimi qisman siqiladi deb, oqimdan ds elementni ajratib olamiz (4-rasm). Oqim xarakatini stasionar deb olib, Eylar tenglamasiga asosan ajratilgan element uchun quyidagini yozamiz:

$$v\rho \frac{dv}{ds} = -\frac{dp}{ds} + \rho g \sin \alpha - Nf \quad (1)$$

bu erda, $N = \rho \frac{v^2}{R} + \rho g \cos \alpha$, S - A nuqtadan boshlab, kolosnikli panjara qamrov burchagi bo'ylab paxtani kontaktda bo'lishi, v - paxta bo'lagini tezligi, p , ρ - bosim va zichlik, R - baraban radiusi, N - normal kuch, f - paxta bilan kolosniklar yuzasi oralig'idagi ishqalanish koeffisienti.

(1) tenglamaga N ni ifodasini qo'yib, $\rho(s)$ zichlik, $p(s)$ bosim va $v(s)$ tezliklarni o'zaro munosabatini ifodalovchi tenglamani olamiz:


$$v\rho \frac{dv}{ds} = -\frac{dp}{ds} + \rho g(\sin \alpha - f \cos \alpha) - \rho \frac{v^2}{R} f \quad (2)$$

(1) tenglamani inobatga olgan holda (2) tenglamani P bosimga nisbatan quyidagicha yozamiz:

$$a \frac{dp}{da} = R\rho g(\sin \alpha - f \cos \alpha)[1 + A(p - p_c)] - \bar{Q}_0 f [1 - A(p - p_c)] \quad (3)$$

Bunda oqimning stasionar xarakati uchun massani saqlanish holatini inobatga olamiz:

$$\rho v S_0 = Q_0 \quad (4)$$



3-rasm. Paxtani qoziqli baraban bilan kolosnikli panjara oralig'idagi xarakati

1-ta'minlovchi valiklar,

2-qoziqli baraban, 3-kolosnikli panjara.

$v_c = \beta v_k$ tezlikni oladi.

bu erda v_k - qoziqning chiziqli tezligi, $\beta < 1$ - tezlikni kamayish koeffisiyenti.

Tozalash zonasida oqimni o'rtacha tezligini $v_{cp} = 0.5v_k$ deb qabul qilamiz va (5) tenglamadan $v = v_c$ ni inobatga olib, qoziq yuzasi bilan kontaktdagi mahsulotni zichligini aniqlaymiz:

$$\rho_c = \frac{Q_0}{S_0 v_c} \quad (6)$$

$p = p_0$ va $\rho = \rho_0$ ni qabul qilib, (3) tenglamani quyidagicha yozamiz:

$$p_c = p_0 - (\rho_0 / \rho_c - 1) / A \quad (7)$$

Kolosnikli panjarada paxta bo‘lagini qoziq yordamida tashishda qoziqdan ajralmasligi $p_c > 0$ ni inobatga olib, quyidagini yozamiz:

$$\frac{\rho_0}{\rho_c} < 1 + p_0 A \quad (8)$$


Ikkinchi tomondan tozalash zonasida paxta bo‘lagini titilishidan quyidagi uchastka uchun quyidagicha yozamiz:

$$p_c < p_0 \text{ shart bajarilib, } \frac{\rho_0}{\rho_c} > 1 \text{ ni beradi.}$$

Bundan

$$1 < \frac{\rho_0}{\rho_c} < 1 + p_0 A \quad (9)$$

Paxta oqimi kolosnikli panjara yoyining uzunligi bo‘yicha vertikal va gorizontal qismi bilan $\alpha_0 < \alpha < 2\alpha_0$ va $2\alpha_0 \leq \alpha < 3\alpha_0$ kontaktda bo‘lishini



4-rasm. Paxta oqimidan ajratilgan ds elementni xarakati

inobatga olib, (9) tenglamani har qaysi $\alpha_0 < \alpha < 2\alpha_0$ bo‘lganda

$$p_{11} = F(\alpha) \left[\frac{p_c}{F(\alpha_0)} + \int_{\alpha_0}^{\alpha} \frac{F_r(\alpha)}{F(\alpha)} d\alpha \right] \quad (10)$$

$$2\alpha_0 < \alpha < 3\alpha_0 \text{ bo‘lganda } p_{12} = F(\alpha) \left[\frac{p_{1c}}{F(2\alpha_0)} + \int_{2\alpha_0}^{\alpha} \frac{F_r(\alpha)}{F(\alpha)} d\alpha \right] \quad (11)$$

Paxtani qoziqlar ta’sirida kolosnikli panjara yuzasi bo‘ylab xarakatida undan mayda iflosliklar ajraladi. Buni inobatga olgan holda tozalash zonasiga kirgan paxta massasi m va uni zichligi ρ orasidagi bog‘liqlikni quyidagicha ifodalaymiz:

$$\frac{dm}{m} = \lambda \frac{d\rho}{\rho} \quad (12)$$

bu erda $\lambda = 1/(1+a)$, $a > 0$ - proporsionallik koeffitsiyenti.

(12) tenglamani $m = m_0$ holda integrallab, $\alpha = \alpha_0$ bo‘lganda $\rho = \rho_k$ inobatga olib, qoziqlar orasidagi tozalash zonasida uchun quyidagini olamiz:

$$\frac{m}{m_0} = \left(\frac{\rho}{\rho_0} \right)^\lambda \quad (13)$$

(7) va (13) tenglamalarni inobatga olib, $\alpha_0 < \alpha < 2\alpha_0$ bo‘lganda har bir uchastka uchun tozalash samaradorligini ifodalovchi tenglama olindi:

$$\varepsilon_{11} = \frac{m_0 - m}{m_0} = 1 - \left[\frac{1 + A(p - p_0)}{1 + A(p_k - p_0)} \right]^\lambda \quad (14)$$

Kolosnikli panjara qamrov burchagining boshlang‘ich zo‘nasi bo‘ylab xarakatdagi paxta oqimidan qoziqli barabandagi qoziqlar bilan kolosnikli panjara tasiridan m_0 massaga nisbatan ajralgan iflosliklar massasi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$0 < \alpha < \alpha_0 \text{ bo‘lganda } \varepsilon_1 = (m_0 - m)/m_0 = 1 - [1 + A(p_1 - p_{0c})]^\lambda$$

$$\varepsilon_{i+1} = \varepsilon_i(i\alpha_0)(\rho_{i+1}/\rho_c)^\lambda = \varepsilon_i(i)\alpha_0[1 + A(p_{i+1} - p_{ic})]^\lambda, i\alpha_0 < \alpha < (i+1)\alpha_0 \quad (i = 1..3)$$

Kolosnikli panjara qamrov burchagining keyingi zo'nasida xarakterdagi paxta oqimidan mayda iflosliklarni ajralishida tozalash zo'nasi uchun shunga o'xshash tenglamani olamiz:

$$0 < \alpha < \alpha_0 \text{ bo'lganda } \varepsilon_5 = \varepsilon_4(4\alpha_0)[1 + A(p_5 - p_{4c})]^\lambda$$

$$\varepsilon_{i+5} = \varepsilon_i(i\alpha_0)(\rho_{i+5}/\rho_c)^\lambda = \varepsilon_i(i)\alpha_0[1 + A(p_{i+5} - p_{ic})]^\lambda, i\alpha_0 < \alpha < (i+1)\alpha_0 \quad (i = 1..3)$$

bu erda p_i ($i = 1, 2, 3..8$).


U holda kolosnikli panjara qamrov burchagi uchun umumiy tozalash zonasida ajralayotgan iflosliklarning umumiy massasi quyidagi ko'rinishni beradi:

$$M/m_0 = \sum_{i=1}^4 \int_{(i-1)\alpha_0}^{i\alpha_0} \varepsilon_i d\alpha + \sum_{i=1}^4 \int_{(i-1)\alpha_0}^{i\alpha_0} \varepsilon_{4+i} d\alpha \quad (15)$$


Tozalash zonasida ikki xil ish unumdorlikda paxtani kolosniklar bilan o'zaro ta'sirida zichlikni, tezlikni va massani taqsimlanishi 5- 7- rasmlarda keltirilgan.

Hisoblash ishlarida $R = 0.2M$, $\omega = 50c^{-1}$, $v_c = 3.8m/s$, $h = 0.018m$, $L = 1.7M$, $\alpha_0 = 45^\circ$, $k_0 = 0.8$, $S_0 = k_0 h L = 0.02448M^2$, $f = 0.1$, $\rho_0 = 40\kappa\Gamma/M^3$, $p_0 = 2500\Pi a$, $A = 7 \cdot 10^{-4}/\Pi a$ ga teng deb olindi.

Grafiklar taxlilidan qoziqlarni va kolosniklarni oqimdagi qatlamga zarba bilan ta'sir etish joyida qatlamni zichligi va tezligini sakrash holatida o'zgarishini ko'rish mumkin. Bu holat uskunani yuqori ish unumdorligida ishlashida yuzaga keladi.




5-rasm. Ish unumdorlik 8 t/soat va 10 t/soat bo'lgan birinchi tozalash zonasida paxta zichligi ρ (kg/m^3) ni taqsimlanishi



6-rasm. Ish unumdorlik 8 t/soat va 10 t/soat bo'lgan birinchi tozalash zonasida paxta tezligi v (m/s) ni taqsimlanishi


7- rasmda boshlang'ich tozalanmagan paxta massasiga nisbatan oqimdagi qatlamdan ajralgan iflos aralashmalar massasining taqsimlanishi keltirilgan. Grafikdan yuqori tozalash samaradorligi, kolosnikli panjara qamrov burchagining boshlang'ich zo'nasida yuzaga kelishi, so'ngra tozalash samaradorligini pasayishi qamrov burchakning keying zo'nasida qatlamdan iflosliklarni ajralish darajasi keskin kamayishi hisobiga tozalash samaradorligini kamayishini ko'rish mumkin.

Bunda λ parametr qiymatini oshishi ajralayotgan iflos aralashmalar massasini oshishiga olib kelishini ko'rish mumkin.



7-rasm. λ : 1- $\lambda=0.06$, 2- $\lambda=0.08$, 3- $\lambda=0.1$, 4- $\lambda=0.12$ parametrning har xil qiymatida, ish unumdorlikni ikki xil kattaligida, birinchi va ikkinchi tozalash seksiyasida iflos aralashmalar massasi ε ning tozalanmagan paxta massasiga nisbatan taqsimlanish grafigi

Dissertatsiyaning “Arrali jin ta'minlagich-tozalagichi uchun takomillashtirilgan kolosnikli panjarani ishlab chiqish bo'yicha amaliy izlanishlar” deb nomlangan uchinchi bobida yangi konstruksiyali kolosnikli panjara bilan takomillashtirilgan ta'minlagich-tozalagichga ega bo'lgan 30 arrali 5DP-130 rusumli arrali jinda laboratoriya sharoitida o'tkazilgan tadqiqot ishlarining natijasi keltirilgan (8-rasm). Tadqiqot ishlarida 30 arrali jin ta'minlagichidagi taklif etilgan kolosnikli panjarani maqbil kattaliklari matematik



8-rasm. Takomillashtirilgan kolosnikli panjaraga ega bo'lgan arrali jinni ta'minlagich-tozalagichi sxemasi

1-ta'minlovchi valiklar, 2-qoziqli baraban, 3-kolosnikli panjara, 4-chiqindi shnegi, 5-tarnov, 6-magnit

rejalash usuli orqali ko'p omilli tajribalar asosida aniqlandi. Baholash mezoni sifatida tozalangan paxtaning ifloslik darajasi Y_1 , tozalash samaradorligi Y_2 olindi.

Belgilangan kriteriyalarga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida: kolosnikli panjaraning yoy uzunligi, kolosniklar oraliq masofasi, ta'minlagich-tozalagichni ish unumdorligi olindi.

Tajriba natijalari kompyuter programmalaridan foydalanilgan holda, dastlabki ishlash natijasida Fisher


kriteriyasi bo'yicha barcha chiqish parametrlarini yetarli darajada tavsiflovchi quyidagi regressiya tenglamalari olindi:

- tozalangan paxtani ifloslik darajasi:

$$Y_1 = 1.192 + 0.0021X_1 - 0.0003X_2 + 0.0028X_3 + 0.0024X_1X_3 + 0.0031X_2X_3 -$$

- ta'minlagichni tozalash samaradorligi:

$$Y_2 = 17.923 + 0.4221X_1 - 0.1648X_2 + 0.1344X_3 - 0.1473X_1X_2 + 0.1911X_1X_2X_3$$




9-rasm. 30 arrali jin ta'minlagichida tozalangan paxta ifloslik darajasini qoziqli baraban bilan ifloslik ajratuvchi yuza oraliq masofasiga bog'liqligi

1-mavjud to'rtli yuzali ta'minlagichda,
2-takomillashtirilgan kolosnikli panjarali ta'minlagichda

ta'minlagichning tozalash samaradorligi o'rtacha 19,9-17,3% ni tashkil etib, to'rtli yuzali ta'minlagich tozalash samaradorligiga qaraganda o'rtacha 1,3- 1,9 (abs)% ga yuqori ekanligini ko'rsatdi.

Ko'p omilli tajribalar natijasida paxtani samarali tozalash va jinlash jarayoni kolosnikli panjara qamrov burchagini 180° da, kolosniklar oraliq masofasini 8 mm da, qoziqli baraban bilan kolosnikli panjara oraliq masofasini 16 mm dagi maqbil kattaligida amalga oshishi aniqlandi. Tanlab olingan maqbil kattalikda ta'minlagich-tozalagichni tozalash samaradorligi amaldagi to'rtli yuzali ta'minlagich tozalash samaradorligiga qaraganda o'rtacha 2,0 (abs)% ga, jinni ish unumdorligi o'rtacha 13,0 kg/soatga yuqori bo'ldi (10-rasm).




10-rasm. 30 arrali jin ta'minlagichida tozalash samaradorligini qoziqli baraban bilan ifloslik ajratuvchi yuza oraliq masofasiga bog'liqligi

1-mavjud to'rtli yuzali ta'minlagichda,
2-takomillashtirilgan kolosnikli panjarali ta'minlagichda

Kolosnikli panjara tozalash qamrov burchagini 135° dan 225° gacha, kolosniklar oraliq masofasini 6 mm dan 10 mm gacha va barabandagi qoziqlar bilan kolosnikli panjara oraliq masofasini 15 mm dan 18 mm gacha o'zgarishida yuqori navli paxtani tozalashda tozalangan paxtaning iflosligi 1,25%-1,29% ni tashkil etib, amaldagi to'rtli yuzali ta'minlagichdan ishlab chiqarilgan paxtaga qaraganda sifati o'rtacha 0,02 (abs)% dan 0,03 (abs)% ga yaxshilandi (9-rasm). Paxtani mayda iflosliklardan tozalashda

Tadqiqot ishlari davrida qoziqli barabandagi qoziqlar bilan kolosnikli panjarani 16-18 mm oraliq masofalarida o'rnatilishida ta'minlagich-tozalagichni samarali ishlashi yuzaga keldi. Bunda yuqori navli paxtani jinlashdan ishlabchiqarilgan toladagi nuqsondor tola va iflos aralashmalarning massaviy ulushi o'rtacha 3,11-3,15% ni, chigit shikastlanish darajasi o'rtacha 2,88-2,61% ni tashkil etib, to'rtli yuzaga ega bo'lgan ta'minlagich-tozalagichli jindan ishlab chiqarilgan tolaga qaraganda

tola sifati o'rtacha 0,06-0,13 (abs)% ga, chigit sifati 0,24-0,31 (abs)% ga oshganligi aniqlandi (11-rasm). Bunda qoziqli baraban bilan kolosnikli panjarani 16-17 mm oraliq masofada o'rnatilishida va yuqori navli paxtani jinlashda jindan



11-rasm. 30 arrali jindan ishlab chiqarilgan tola va chigit sifat ko'rsatkichini qoziqli baraban bilan ifloslik ajratuvchi yuza oraliq masofasiga bog'liqligi

- 1, 3-mavjud to'rtli yuzali ta'minlagichda,
- 2, 4-takomillashtirilgan kolosnikli panjarali ta'minlagichda

keyingi chigit tukdorligi o'rtacha 10,2% ni, shikastlanishi 2,8% ni va 2,72% ni, oraliq masofani 18 mm da o'rnatilishida jindan keyingi chigit tukdorligi o'zgarmas bo'lib, shikastlanishi o'rtacha 2,61% ni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkichlar texnik va urug'lik paxtani jinlashda arrali jinga qo'yilgan texnologik talabni bajarganligidan texnik paxtalarni jinlashda qoziqli baraban bilan kolosnikli panjara oraliq masofasini 16-17 mm, urug'lik paxtalarni jinlashda esa 18 mm


o'rnatish maqsadli ekanligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Kolosnikli panjara bilan takomillashtirilgan ta'minlagich-tozalagichga ega bo'lgan arrali jinda ishlab chiqarish sinovi va iqtisodiy samaradorlik hisobi”** deb nomlangan to'rtinchi bobida ishlab chiqarishda o'tkazilgan taqqoslash-tadqiqot ishlarining natijasi keltirildi.


Erishilgan muqobil kattaliklar asosida takomillashtirilgan kolosnikli panjaraning chizmalari tayyorlandi va sanoat-tajriba nusxasi ishlab chiqarildi (12, 13-rasmlar).

Ishlab chiqarilgan nusxa Sirdaryo viloyatidagi “Boyovut techno cluste” MChJ paxta tozalash korxonasi paxtani jinlash texnologik tizimidagi bir dona 90 arrali jinga o'rnatilib, jin takomillashtirildi va texnologik tizimdagi mavjud konstruksiyali to'rtli yuzali ta'minlagich-tozalagichga ega bo'lgan 90 arrali jin bilan taqqoslash-tajriba ishlari o'tkazildi (14, 15- rasmlar).

Laboratoriya sharoitida o'tkazilgan tadqiqot ishlari natijasida taklif etilgan



12-rasm. Takomillashtirilgan kolosnikli panjarani sanoat- tajriba nusxasining yig'ma chizmasi



13-rasm. Takomillashtirilgan kolosnikli panjarani sanoat- tajriba nusxasi

kolosnikli panjarali ta'minlagich-tozalagichda texnik paxtani tozalash va jinlashda paxtani samarali tozalash va jinlash jarayonini amalga oshishi, ishlab chiqarilgan tola va chigit sifatining yaxshilanishi jin ta'minlagich-tozalagichdagi kolosnikli



14-rasm. Takomillashtirilgan kolosnikli panjaraga ega bo'lgan 90 arrali jinning ta'minlagichi

panjara tozalash qamrov burchagini 180° gradusida, kolosniklar oraliq masofasini 8 mm da, texnik paxtalarni tozalashda barabandagi qoziqlar uchi bilan kolosnikli panjarani 16 mm va 17 mm oraliq masofasida, urug'lik paxtalarni tozalashda esa 18 mm oraliq masofada amalga oshirilganligini inobatga olib, taqqoslash-tajriba ishlari yuqorida qayd etilgan kolosnikli panjara yoy uzunligi, kolosniklar oraliq masofasi va baraban qoziqlari bilan kolosnikli panjara oraliq masofalarida olib borildi.

Sinov ishlari boshlang'ich namligi 10,6% va 13,4%, iflosligi 7,7% va 9,6% bo'lgan Sulton seleksiyali paxtaning I va




15-rasm. Boyovut techno cluste" MChJ paxta tozalash korxonasidagi takomillashtirilgan kolosnikli panjaraga ega bo'lgan 8DP-90 rusumli arrali jin

III nav 2-sinfida o'tkazildi. Bunda jin ta'minlagich-tozalagichiga berilgan I nav 2-sinfl paxtaning namligi o'rtacha 7,9% ni, iflosligi o'rtacha 1,46% ni, paxta tarkibidagi chigit shikastlanishi o'rtacha 1,91% ni, III nav 2-sinfl paxtaning namligi o'rtacha 9,8% ni, iflosligi 1,76% ni, chigit shikastlanishi 2,22% ni tashkil etdi. Sulton seleksiyali I nav 2-sinfl paxtani takomillashtirilgan kolosnikli panjarali ta'minlagich-tozalagichga ega bo'lgan 90 arrali jinning ta'minlagich-tozalagichdagi qoziqli baraban bilan kolosnikli panjarani 16-18 mm oraliq masofasida tozalashda tozalangan paxtaning ifloslik darajasi o'rtacha

1,22- 1,24% ga teng bo‘lib, paxta sifati mavjud to‘rli yuzali ta‘minlagich-tozalagichda tozalangan paxta sifatiga qaraganda o‘rtacha 0,04 (abs)%-0,06 (abs)% ga yaxshilandi (16-rasm).

Bunda tozalangan paxta tarkibidagi chigit shikastlanish darajasi o‘rtacha 2,06-1,95% ga teng bo‘lib, chigit sifati mavjud ta‘minlagich-tozalagichda tozalangan paxta tarkibidagi chigit sifatiga qaraganda o‘rtacha 0,06 (abs)%-0,1 (abs)% ga yaxshilandi.



16-rasm. Navlar bo‘yicha tozalangan paxta iflosligini, qoziqli baraban bilan ajratuvchi yuza oraliq masofasiga bog‘liqligi


- 1, 3-mavjud konstruksiyali to‘rli yuzada,
- 2, 4-takomillashtirilgan konstruksiyali kolosnikli panjarada

chigitni shikastlanish darajasi o‘rtacha 2,91-2,65% ga teng bo‘lib, chigit sifati mavjud to‘rli yuzali jindan ishlab chiqarilgan chigitga qaraganda o‘rtacha 0,27 (abs)% dan 0,33 (abs)% ga yaxshilandi. Jindan keyingi toladagi nuqsondor tola va iflos aralashmalarning massaviy ulushi o‘rtacha 3,17-3,15% ni tashkil etib, tola sifati tajriba uchun tanlab olingan mavjud to‘rli yuzali jindan ishlab chiqarilgan tolaga qaraganda o‘rtacha 0,08-0,05 (abs)% ga oshdi. Paxtani jinlashda jinning ish unumdorligi o‘rtacha 980-1023 kg/soatga teng bo‘lib, mavjud to‘rli yuzali jin ish unumdorligiga qaraganda o‘rtacha 40-45 kg/soatga yuqori ekanligini ko‘rsatdi.

Texnologiyada ishlab chiqarilgan tolaning sifatini o‘rganish uchun jindan keyin o‘rnatilgan ikki barabanli to‘g‘ri oqimli 5VP rusumli tola tozalagichda tola tozalandi. Bunda tozalangan toladagi nuqsondor tola va iflos aralashmalarning massaviy ulushi o‘rtacha 2,0-1,9% ga teng bo‘lib, ishlab chiqarilgan tola sifatining yaxshilanganligidan I nav “Oliy” sinfni tashkil etdi.

Namligi 13,4%, iflosligi 9,6% bo‘lgan Sul-ton seleksiyali III nav 2-sinfli paxtani takomillashtirilgan kolosnikli panjarali ta‘minlagich-tozalagichda oraliq masofalarni 16 mm dan 18 mm gacha o‘zgarishida tozalashda tozalagich tozalash samaradorligi o‘rtacha 21,7-18,8% ni tashkil etib, taqqoslash uchun tanlangan mavjud to‘rli yuzali ta‘minlagich-tozalagich tozalash samaradorligiga qaraganda o‘rtacha 2,8-2,3 (abs)% ga yuqori ekanligini ko‘rsatdi (17-rasm).


Tozalangan paxta jinlangandan ishlab chiqarilgan chigit tukdorlik darajasi qoziqli baraban bilan kolosnikli panjarani 16 mm dan 18 mm gacha o‘zgarishida deyarli bir xil bo‘lib, o‘rtacha 11,3% ni tashkil etdi. Bunda chigitni shikastlanish



17-rasm. Navlar bo'yicha ta'minlagich-tozalagichni tozalash samaradorligini qoziqli baraban bilan ajratuvchi yuza oraliq masofasiga bog'liqligi

- 1, 3-mavjud konstruksiyali to'rtli yuzada,
- 2, 4-takomillashtirilgan konstruksiyali kolosnikli panjarada

42-48 kg/soatga yuqori ekanligi aniqlandi. Jindan keyingi tola 5VP rusumli tozalagichda tozalanganda toladagi nuqsondor tola va iflos aralashmalarning massaviy ulushi o'rtacha 2,93% va 3,0% ga teng bo'lib (18-rasm), mavjud to'rtli



18-rasm. Navlar bo'yicha tozalangan tola iflosligini qoziqli baraban bilan ajratuvchi yuza oraliq masofasiga bog'liqligi

- 1, 3-mavjud konstruksiyali to'rtli yuzada,
- 2, 4-takomillashtirilgan konstruksiyali kolosnikli panjarada

iqtisodiy samaradorlik 283,4 mln so'mni tashkil etadi.

darajasi o'rtacha 3,31-3,12% ga teng bo'lib, chigit sifati mavjud to'rtli yuzali ta'minlagichga ega bo'lgan jindan ishlab chiqarilgan chigitga qaraganda o'rtacha 0,16-0,11 (abs)% yaxshilandi.

Jindan keyingi tolaning iflosligi o'rtacha 3,48-3,62% ni tashkil etib, mavjud to'rtli yuzali ta'minlagich-tozalagichli jindan ishlab chiqarilgan tola iflosligiga qaraganda o'rtacha 0,12-0,15 (abs)% ga kam ekanligini ko'rsatdi. Paxtani jinlashda jinning ish unumdorligi o'rtacha 863-916 kg/soatga teng bo'lib, mavjud qoziqli barabanli jin ish unumdorligiga qaraganda o'rtacha

yuzali jindan ishlab chiqarilgan tolaning tola tozalagichda tozalanishidan ishlab chiqarilgan tola qaraganda sifati o'rtacha 0,21-0,19 (abs)% ga yaxshilandi va O'zDst 604:2016 davlat standarti bo'yicha III nav "Oliy" sinfni tashkil etdi.

Jinda paxtani tozalash va jinlashda tozalash samaradorligining va ish unumdorligining oshishi, hamda ishlab chiqarilgan tola sifatini yaxshilanishi hisobiga paxta-to'qimachilik klasterlari tasarrufidagi bir dona paxta tozalash korxonasi bir mavsumga kutilayotgan

XULOSA

1. Mahalliy va xorijiy paxta tozalash korxonalariga joriy etilgan arrali jinlardagi ta'minlagich-tozalagichlarni konstruksiyalari, avzallik va kamchiliklarini o'rganish asosida tozalash samaradorligini va ish unumdorligini oshiradigan, tola va chigit sifatini yaxshilaydigan, takomillashtirilgan kolosnikli panjarali ta'minlagich-tozalagichni sxemasi ishlab chiqildi.

2. Paxta oqimini kolosnikli panjara yoyi bo'ylab tozalanishida qoziqlar zarba kuchidan va kolosniklar tasiridan oqim bosimi, zichligi va tezligini o'zgarishi yuzaga kelishi bilan bosim va zichlikni kamayishi, tezlikni esa oshishi yuzaga kelganligi aniqlandi. Tozalash zonasida eng ko'p iflosliklarni ajralishi tozalash

zonasining birinchi uchastkasida sodir bo'lishi, ikkinchi uchastkada iflosliklar ajralishini kamayib borishi o'rganildi.

3. Arrali jinni takomillashtirilgan kolosnikli panjarasini muqobillashtirish uchun to'liq omilli tajribalar o'tkazildi. Olingan regressiya tenglamalar va laboratoriya tadqiqotlari taxlili natijasida kolosnikli panjara tozalash yoyi qamrov burchagini 180°, kolosniklar oraliq masofasini 8 mm dagi maqbul kattaligida bo'lishi aniqlandi.

4. Sirdaryo viloyati "Boyovut techno cluster" MChJ paxta tozalash korxonasida Sulton seleksiyali I va III nav 2-sinflil paxtani DP-90 rusumli jinni takomillashtirilgan ta'minlagich-tozalagichdagi kolosnikli panjarani maqbul parametrlarida tozalashda tozalagichning tozalash samaradorligi 16,4-21,7% ni tashkil etib, korxonada ishlab turgan to'rli yuzali ta'minlagich-tozalagichga ega bo'lgan 8DP-90 rusumli jin tozalash samaradorligiga qaraganda navlar bo'yicha o'rtacha 2,7-2,8 (abs)% ga yuqori ekanligini ko'rsatdi. Bunda tozalangan paxtaning ifloslik darajasi 1,22-1,38% ga teng bo'lib, paxta sifati to'rli yuzali ta'minlagich-tozalagichda tozalangan paxta sifatiga qaraganda o'rtacha 0,04-0,06 (abs)% ga yaxshilandi.

5. Tozalangan paxtani jinlashdan ishlab chiqarilgan chigitning shikastlanish darajasi navlar bo'yicha 2,91% va 3,31% ni tashkil etib, chigit sifati to'rli yuzli jindan ishlab chiqarilgan chigitga qaraganda o'rtacha 0,27 (abs)% va 0,16 (abs)% ga yaxshilandi. Jindan keyingi toladagi nuqsondor tola va iflos aralashmalarning massaviy ulushi o'rtacha 3,17% ga va 3,48% ga teng bo'lib, to'rli yuzali ta'minlagichga ega bo'lgan jindan ishlab chiqarilgan toлага qaraganda sifati o'rtacha 0,08-0,12 (abs)% ga oshdi. Bunda jinning ish unumdorligi navlar bo'yicha o'rtacha 980-963 kg/soatga teng bo'lib, to'rli yuzali ta'minlagichli jin ish unumdorligiga qaraganda o'rtacha 40-42 kg/soatga yuqori ekanligini ko'rsatdi.

6. Jindan keyingi tola 5VP rusumli tozalagichda tozalanganda, tolaning sifati mavjud jindan ishlab chiqarilgan tolani 5VP tozalagichda tozalanishidan keyingi tolaning sifatiga qaraganda navlar bo'yicha o'rtacha 0,3-0,21 (abs)% ga yaxshilandi va O'zDst 604:2016 davlat standarti bo'yicha I va III nav "Oliy" sinfga mansub tola ishlab chiqarildi.

7. Arrali jin samaradorligini oshirish, tola va chigit sifatini yaxshilash uchun ta'minlagichda takomillashtirilgan konstruksiyali kolosnikli panjarani qo'llash bilan panjara tozalash yoyi qamrov burchagini 180°, kolosniklar oraliq masofasini 8 mm olish maqsadli ekanligi o'rganildi. Bunda texnik paxtani jinni o'zida tozalash va jinlashda, jin tozalash samaradorligi va ish unumdorligi yuqori bo'lishi uchun baraban qoziqlari bilan kolosnikli panjara oraliq masofasini 16-17 mm kattalikda o'rnatish, urug'ik paxtani jinda tozalash va jinlashda chigit shikastlanishi me'yoridan oshmasligi uchun barabandagi qoziqlar bilan kolosnikli panjara oraliq masofasini 18 mm kattalikda o'rnatish kerakligi aniqlandi.

8. DP-90 rusumli arrali jin ta'minlagichini takomillashtirilishidan jin tozalash samaradorligi va ish unumdorligini oshishi, ishlab chiqarilgan tola va chigit sifatining yaxshilanishi hisobiga bir dona paxta tozalash korxonasiga bir mavsumga kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik o'rtacha 283,4 mln. so'mni tashkil etadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/28.2024.T.181.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УНИВЕРСИТЕТЕ ТЕРМЕЗСКОЕ
ГОСУДАРСТВО ИНЖЕНЕРНЫЕ И АГРОТЕХНОЛОГИИ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ОМОНОВ ЗАРШИД ДЖУМАНАЗАР УГЛИ

**РАЗРАБОТКА УСОВЕРШЕНСТВОВАННОЙ РАБОЧЕЙ ЧАСТИ
ПИТАТЕЛЯ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОЧИСТКИ
ПИЛЬНОГО ДЖИНА**

**05.02.03 - Технологические машины. Роботы, системы мехатроники и
робототехники**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОР ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Термез - 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций республики Узбекистан за B2025.2.PhD/T3916.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном техническом университете имени Ислама Каримова.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице по адресу (www.terizmti.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель: Сулаймонов Рустам Шенникович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты: Джамалов Рустам Камолиддинович
доктор технических наук, профессор

Юнусов Солохиддин Зунунович
доктор технических наук, профессор

Ведущая организация: Ферганский государственный технический университет

Защита диссертации состоится «___» _____ 2025 г. в ___ часов на заседании Научного совета PhD.03/28.2024.t.181.02 при Термезском государственном университете инженерии и агротехнологии (Адрес: 190100, г. Термез, Сурхандарьинская область, ул. Ислама Каримова, 288А. Тел.: (+99876) 221-87-20, Телеграм: (+99894) 460-20-44, e-mail: admin@tdmau.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Термезского государственного университета инженерии и агротехнологии (регистрационный номер _____). (Адрес: 190100, г. Термез, Сурхандарьинская область, ул. Ислама Каримова, 288А. Тел.: (+99876) 221-87-20 Телеграм: (+99894) 460-20-44, e-mail: admin@tdmau.uz). termizmti@mail.ru.

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2025 года.
(Протокол рассылки № _____ от «___» _____ 2025 года).

Ф.У.Каршиев

Председатель научного совета по
присуждению ученых степеней, доктор
технических наук, профессор

О.Ш.Ачилдиев

Ученый секретарь научного совета по
присуждению ученых степеней, PhD по
техническим наукам, доцент

М.К.Урозов

Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению ученых
степеней, доктор технических наук, доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире хлопковое волокно является основным сырьем текстильной промышленности. Особое внимание уделяется вопросам внедрения в производство современной ресурсосберегающей техники и технологий для качественного производства хлопкового волокна. В этом Узбекистан занимает достойное место. Высокий уровень конкуренции на мировом рынке волокна и готовой продукции указывает на необходимость расширения производства конкурентоспособной качественной текстильной продукции. Из-за слабо развитой текстильной промышленности во многих странах хлопковой отрасли, большая часть экспорта хлопковой продукции приходится на крупные страны, такие как США, Китай и Индия.¹

Большое внимание уделяется развитию автоматизированных методов проектирования и производства техники и технологий первичной обработки хлопка, совершенствованию методов управления технологическими процессами. В связи с этим, в частности, создание эффективных технических средств и технологий очистки и джинирования хлопка в самом джине, улучшение качества волокна и семян, разработка ресурсосберегающей техники, повышающей эффективность производства, остается одной из важных задач.

В мире ведутся широкомасштабные научно-исследовательские работы в рамках разработки и создания научных основ новой техники и технологии первичной обработки хлопка. В связи с этим, в частности, важное значение приобретает автоматизация процесса работы пыльного джина, являющегося основным оборудованием хлопкоочистительных предприятий, оснащение его ресурсосберегающими деталями, повышение производительности и эффективности очистки, сохранение природного качества производимого волокна на основе повышения эксплуатационной надежности оборудования. В связи с этим одной из основных задач, стоящих перед хлопкоочистительными предприятиями и требующих решения, является резкое снижение потерь продукции при пыльном джинировании хлопка путем внедрения новой техники и технологий в производство и производство качественной продукции в соответствии с требованиями государственных стандартов. При этом необходимо научно обоснованно разрабатывать пыльные джины, позволяющие наряду с высокоэффективной очисткой и джинированием высокосортного и низкосортного хлопка наладить энерго-ресурсосберегающий технологический процесс.

В нашей республике на основе совершенствования хлопково-текстильного производства особое внимание уделяется широкому налаживанию хлопково-текстильных кластеров, являющихся одним из важных условий развития экономики, проектированию хлопкоочистительного оборудования при переработке хлопка и повышению технологического уровня производства, обеспечению конкурентоспособности пыльного джина на внутреннем и внешнем рынках.

В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы определены задачи, в том числе «...увеличение объема производства промышленной продукции в 1,4 раза, увеличение объема производства продукции текстильной промышленности в 2 раза, изучение влияния текстильных отраслей на производство при вступлении во Всемирную торговую организацию...»².

